


QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qashqadaryo viloyatining
sanoat ishlab chiqarishi
2023- yil yanvar oyi
(dastlabki ma'lumot)




Tel.: 75-221-32-36

www.qashstat.uz


2023- yil yanvar oyida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida viloyatimiz korxonalari tomonidan 1 601,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 80,4 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1 155,8 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 72,2 % ni tashkil etdi.




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 21,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 5,6 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 72,2 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 0,7 % ini tashkil etdi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ini tashkil etdi.




2023- yil yanvar oyida



2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 155,8 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 72,2 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022- yilning yanvar oyida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,9 % (21,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 3,7 % (1,7 %) va quyi texnologiyalisi – 47,3 % (44,4 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,4 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 183,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,1 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 97,1 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 24,9 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 82,0 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,0 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 99,5 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,1 % (2022- yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi - 73,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar oyi davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2,7 ming tonna kalava ip (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 90,3 %), 8,4 ming tonna paxta chigiti (89,3 %), 4,8 ming tonna paxta tolasi (68,5 %) ishlab chiqarildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Paxta chigiti, ming tonna.	8,3	8,4	0,1
Paxta tolasi, ming tonna.	6,4	4,8	-1,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	11 657,2	7 303,8	-4 353,4
Kalava ip tonna.	2 216,0	2 663,6	447,6
Aroq, ming litr.	188,0	302,1	114,1
Uzum vinosi, ming letr.	19,2	52,7	33,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna.	0,5	0,0	- 0,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	505,0	188,0	- 317,0

2023- yil yanvar oyida

Aroq ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2023- yil yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 302,1 ming litr aroq ishlab chiqarildi. Aroq ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 160,7 % ni tashkil etdi.




Uzum vino ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha jami 52,7 ming letr uzum vino ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 270,0 % ni tashkil etdi.




2023- yil yanvar oyida
Kalava ip ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar oyida jami 2,7 ming tonna kalava ip ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,3 % ga ko'paygan.



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish


2023- yilning yanvar oyida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 188,0 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 250,0 % ni tashkil etdi.



Metallurgiya sanoati

2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 2,0 m. ni tashkil etgan bo'lsa,


2023- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,0 % ni , fizik hajm indeksi esa, 97,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 0,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2022- yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 186,6 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2023- yilning yanvar oyiga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 183,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 54,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,0 % ni tashkil etdi,


2023- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 99,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 288,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 104,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,9 % ni, fizik hajm indeksi 82,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 398,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,5 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % fizik hajm indeksi 96,3 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 47,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar oyi yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,8 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 20,8 % ni, fizik hajm indeksi 72,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 333,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 345,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,5 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 82,5 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar	2023- yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1 073,3	726,8	-346,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	287,4	311,9	24,5

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022-yil yanvar	2023-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	4 906,6	9 165,6	4 259,0
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	1 175,7	886,0	-289,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 75,4 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 127,3 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 388,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar oyi mos davriga nisbatan 85,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 24,2 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari



2023- yilning yanvar oyida viloyatimizda 388,2 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,2 % ni tashkil etdi.

2022- yilning shu davriga nisbatan hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda Mirishkor tumanida (98,9 %), Muborak tumanida (98,5 %), Shahrisabz shaharda (87,3 %) va Chiroqchi tumanida (86,8 %) yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 71,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 28,7 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar oyida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 66,5 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 33,5 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining sur'ati 94,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar sur'ati 67,8 % ni tashkil etdi.

